

IJTIMOYIY ISH SOHASINING INSONLAR HAYOTIDAGI O'RNI

Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433613>

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonlarning hayoti uchun juda zarur bo'lgan kasb turi, ya'ni ijtimoiy ish sohasi haqida so'z boradi. Uning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi bizning jamiyatimizga shu kasb mutaxassislari zarur ekanligi va shu sohaga oid davlatimizdagi so'ngi farmon va qonunlar haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy, jamiyat, inson, davlat, xizmat, mutaxassis, agentlik, kasb, rivoj, xalq, boshqaruv.

Abstract. This article talks about a profession that is very necessary for people's lives, that is, the field of social work. The history of its origin, development, the fact that our society needs specialists in this profession, and the latest decrees and laws in our country related to this field have also been discussed.

Key words. Social, society, human, state, service, specialist, agency, profession, development, people, management.

Ijtimoiy soha jamiyatning asosiy bogini hisoblanadi. Azal-azaldan bu sohani rivojlantirishga katta e'tibor berishgan. Bu soha ilk marotaba ehson shaklida Pyotr 1 davrida 17-asrda paydo bolgan. Va hozirgacha o'z rivojini topib bormoqda. Har bir inson bor ekan, albatta unda qandaydir muommo bo'ladi. Moddiy, manaviy yoki jismoniy. Ijtimoiy soha mutaxassisi ulardagi muommolarni aniqlab yechim topishga harakat qiladi. Har bir davlat rivojlanishi uchun ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratadi. Chunki jamiyat barqaror bolishi uchun uni ehtiyojlarini qondirish kerak bu esa bevosita ijtimoiy sohaga bog'liq jarayondir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy soha xodimlarining moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar faoliyatiga qo'shayotgan hissalarini yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy sohani rivojlantirishga davlatning salmoqli ulushdagi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari sarflanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalari xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, san'at va madaniyat, ilm-fan, jismoniy tarbiya va sport, ilmiy izlanishlar, davlat boshqaruvi, mudofaa, maishiy xizmat kabi sohalarni qamrab oladi. Bularsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu soha xodimlari mehnatning umumiy yo'nalishi inson va jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy rivojlanishi uchun qaratilgan.

Ijtimoiy soha faoliyatining tarixiga murojaat qilsak, dastlabki davrlarda uning insoniyat taraqqiyotida egallagan ulushi nihoyatda kamligining guvohi bo'lamiz. Hozirda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, aholi ijtimoiy va madaniy ehtiyojining rivojlanishi ijtimoiy mehnat taqsimotida ijtimoiy sohaning yirik tarmoqqa aylanishiga sabab bo'ldi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu

mamlakatlarda ishga yaroqli umumiy aholining o'rtacha 70% dan ko'prog'i shu sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.¹

Tasavvur qiling bir shaxs avto halokat natijasida vaqtinchalik yoki butun umrga nogiron bo'lib qolsa. Unga kim yorda beradi? Shaxs o'zini jamiyat a'zolaridan uzoqda tutishni boshlaydi va unda o'zini xuddiki, hech kimga keraksizday his qiladi. Mana shunaqa holatda ijtimoiy ishchi shu shaxsni jamiyatga qayta moslashishiga yordam beradi. Yoki yana bir misol, muqaddam sudlanga shaxsga jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Togri bizning davlatimizga bu soha yaqin yillarda kirib keldi. Albatta, ushbu sohani rivojlanishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Muhtaram prezidentimiz ha shu sohani rivojlantirish uchun qator yangiliklarni, qonular va qarorlarni e'lon qilmoqdalar.

Shularda biri "Ijtimoiy himoya agentligi"ni tashkil etilishidir.

Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. U fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish maqsadida yaratildi.

Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. U o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.²

Hattoki, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangilangan ozb res konstitutsiyaning 1 moddasiga ijtimoiy davlat atamasiniyam qoshdilar.

(O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.)³

Buning sababi ijtimoiy sohani rivojlantirish natijasida davlatimiz tinch osoyishta boladi, eng asosiysi xalqimiz rozi bolishadi.

Tan olishimiz kerak har qadamimiz "Ijtimoiy" atamasi bilan o'rab olingan. Lekin biz ko'p hollarda bunga ahamiyat bermaymiz. "Ijtimoiy fikr", "Ijtimoiy so'rovnoma", "Ijtimoiy yordam", "Ijtimoiy muhofaza", "Ijtimoiy xizmat" shularning jumlasidandir. Bu qatorni yana uzoq davom ettirishimiz mumkin. Bu achinarli holat. Nega? Chunki odamlarda qachon ushbu kasbga bo'lgan ishonch paydo bo'lsa. Uning vakolatlaridan qisman bo'ldasa foydalana olsa. Jamiyatimiz naqadar osoyishta va tinch bo'lar edi.

"Ijtimoiy " tushunchasini asl ma'nosi nima? Insonlar aro munosabatga oid, o'zaro aloqadorlik, jamoaviylik. Degan ma'noni anglatadi.

Ba'zi bir insonlar sotsiologiya bilan ijtimoiy ishni bir xil deb tushinishadi. Lekin bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha. Chunki, sotsiolog jamiyatdagi muommalarni faqatgina aniqlaydi xolos. Ijtimoiy ishchi esa, aniqlab ularga yechim topishga harakat qiladi. Ya'ni ham aniqlaydi, ham o'rganib chiqadi, ham yechim topadi. Ijtimoiy ish kasbi juda mashaqqatli va murakkab kasbdir. Uning alohida etikasi, tarixi, qadriyatlar bor. Har kim ham bu kasbni egallay olmaydi. Odamlar bilan muloqot qilish, ulardagi muommalarga

¹ <https://azkurs.org/ijtimoiy-soha-tushunchasi-va-uning-rivojlanishi>

² <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency>

³ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445169>

yechim topish harkimning ham qo'lidan kela olmaydi. Faqatgina maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslargina shu sohada ishlashlari mumkin.

Inson qadr topgan jamiyatning bugungi va ertangi kuniga ishonch bo'ladi. Odamzodning qadri, erkinlik va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi adolatli hayotini ta'min etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlar tizimiga insonparvarlik deb qaraladi. Sharq ijtimoiy tafakkurida insonparvarli yoki insonni ulug'lash kabi qarashlar qadimiy ildizga egadir. G'arbda bu tushuncha o'rta asrlarda diniy mutaasiblar tomonidan kishilarning inkvizatsiya qilishga qarshi kurashish fonida vujudga kelgi. Shu sababdan ham sharq ma'naviy yuksalish darajasi g'arb olamiga nisbatan uzoq o'tmishga ega.⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi.
2. <https://azkurs.org/ijtimoiy-soha-tushunchasi-va-uning-rivojlanishi>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency>
4. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445169>
5. Abbasova Maftuna Subxonovna: Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri. 73-bet.
6. Jahongir Toshniyozovich Ibragimov - Akademiya Google https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=ru&user=WtrCbdgA AAAJ

⁴ Abbasova Maftuna Subxonovna: Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri. 73-bet.